

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 176 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOIIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi bo'lim boshlig'i

E-mail: shaxboz_meyliqulov@tues.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblangan bank-moliya tizimida raqamli texnologiyalarni kengaytirish hamda raqamli bank xizmatlarini jadallashtirish jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli bank texnologiyalarining mohiyati, ularning afzalliklari va milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati bir qator tadqiqotchilar ilgari surgan fikrlar orqali yoritiladi. Bundan tashqari, maqolada bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarda hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya bo'yicha hozirgi jarayonlar, davlat siyosati, huquqiy asoslar, mavjud muammolar hamda ushbu texnologiyalarni rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Maqolada shuningdek, tahlillar asosida xalqaro tajribalar o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bank texnologiyalar, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, fintex, mobil banking, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, moliyaviy maslahatchilar, blokcheyn texnologiyalari.

Abstract: This article analyzes the processes of expanding digital technologies and accelerating the development of digital banking services within the banking and financial system, which constitutes the backbone of Uzbekistan's economy. The study explores the essence of digital banking technologies, their advantages, and their significance for the national economy, drawing on the perspectives of various scholars. Moreover, the paper examines the current digital transformation processes in several developed countries and in Uzbekistan, including government policies, legal frameworks, existing challenges, and the prospects for further development. Based on analytical findings, international experiences are reviewed, and a set of conclusions and practical recommendations are proposed.

Key words: digital banking technologies, digital banking services, financial stability, fintech, mobile banking, digital transformation, artificial intelligence, financial advisors, blockchain technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы расширения цифровых технологий и ускорения развития цифровых банковских услуг в банковско-финансовой системе, которая считается основным звеном экономики нашей республики, с теоретической и практической точки зрения. Сущность цифровых банковских технологий, их преимущества и значение в национальной экономике освещаются на основе идей, выдвинутых рядом исследователей. Кроме того, в статье рассматриваются текущие процессы, государственная политика, правовая база, существующие проблемы и перспективы развития этих технологий в ряде развитых зарубежных стран и Узбекистане. На основе анализа изучается международный опыт и формулируются выводы и предложения.

Ключевые слова: цифровые банковские технологии, цифровые банковские услуги, финансовая стабильность, финтех, мобильный банкинг, цифровая трансформация, искусственный интеллект, финансовые консультанты, блокчейн-технологии.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning shiddatli rivojlanish jarayonlarini kuzatmoqdamiz. Ushbu texnologik innovatsiyalar barcha sohalarning, shu jumladan iqtisodiyot sohasining asosiy bo'g'ini hisoblangan bank tizimining ham yangi ko'rinishda xizmatlar taqdim etishiga olib kelmoqda. Ta'kidlash joizki, bugungi kundagi bank faoliyatini samarali tashkil etilishi, mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash raqamli transformatsiya jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki ushbu texnologiyalar nafaqat yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish, balki mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yanada qulay shaklda yo'lga qo'yish imkonini bermiqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda bank xizmatlarining ham raqamli shaklga o'tishi bank tizimida onlayn banking, mobil ilovalar, raqamli to'lov tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy maslahatchilar,



blokcheyn texnologiyalari va “open banking” platformalari kabi innovatsiyalarni joriy etilishiga olib keldi. Bugungi kunda ushbu yangi texnologiyalar mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan birga, banklar faoliyatining shaffofligini, xavfsizligini va tezkorligini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining bank tizimida ham oxirgi 5 yillikda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlari olib borilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi juda muhim qadamlardan biri bo'lib, unda bank-moliya tizimini raqamlashtirishda ustuvor vazifalar belgilab o'tilgan. Masalan, yirik tijorat banklari – Ipoteka Bank, Xalq Banki, Agrobank va boshqa banklarda mobil ilovalar, onlayn kreditlash tizimlari, elektron to'lov xizmatlari keng joriy etilgan. Markaziy bank tomonidan esa “Open Banking” platformasini joriy qilish ishlari boshlangan bo'lib, bu banklararo integratsiyani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, raqamli texnologiyalarni joriy etishning bir qator afzalliklari mavjud: Jumladan:

- mijozlar uchun xizmat ko'rsatish tezligini oshishi va masofaviy xizmatlar orqali mijozlar kredit olish, hisobvaraqlarni boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarini boshqarishi kabi amaliyotlarni istalgan joydan bajarishi kabi qulayliklar yaratilishi;
- aholining barcha qatlamlari uchun, misol tariqasida uzoq va chekka hududlarda istiqomat qiluvchilar uchun ham bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini bir xilda yaratilishi;
- bank xavfsizligini ta'minlashi va risklarni boshqarishda muhimligi, ya'ni blokcheyn va kriptografik usullar orqali tranzaksiyalarni himoya qilish yo'llari hamda fribgarliklarni oldini olish imkoniyati yaratiladi;
- resurslardan samarali foydalanish imkonini borligi, bunda banklarning operatsion xarajatlari kamayishi hamda xizmat ko'rsatish jarayonlari avtomatlashishi hisobiga bank resurslaridan maksimal daromad olish ta'minlanadi;
- raqamli mahsulotlar orqali banklar startaplar, kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan samarali hamkorlik qilishi hamda yangi bozor segmentlari bilan faoliyat ko'lamini kengaytirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2015-yil dekabr oyida Xitoy hukumati tomonidan Taijou shahrini mamlakatdagi yagona milliy darajadagi “Kichik va mikro korxonalar uchun moliyaviy xizmatlarni isloh qilish va innovatsiyalar bo'yicha sinov hududi” deb belgilandi. Xitoyning Taizhou shahri kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilg'or tajribaga ega hudud sifatida tanilgan. Ushbu “Taizhou modeli” moliyaviy xizmatlarning turli shakllarini o'z ichiga oladi: yirik va o'rta korxonalarni davlat banklari qo'llab-quvvatlash, aksiyadorlik banklari asosan kichik va o'rta biznesga xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, shahar tijorat banklari hamda kichik moliya institutlari mikro va kichik korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmoqda.[1]

Taizhou tajribasining o'ziga xos jihati – bu hukumat, korxona va banklar o'rtasida samarali moliyaviy ekotizimni shakllantirishdir. Bunda davlat xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan “hukumat-bank integratsiyasi” loyihasi sifatida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Taizhou shahri (Chjetszyan provinsiyasi)da kredit axborotini almashish platformasi bilan siyosiy moliyaviy kafolat institutlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik raqamli iqtisodiyot va real sektor uyg'unligini namoyon etuvchi muvaffaqiyatli amaliyot sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tajriba tijorat banklarida kichik va o'rta korxonalar uchun kreditlash jarayonlarining raqamli transformatsiyasiga asosli dalillarni taqdim etadi.

Taizhou Kredit Ma'lumotlarini Almashinish Platformasining joriy etilishi natijasida, siyosiy kafolatlar nafaqat hukumat kafolati sifatida, balki kooperativ banklarning raqamli transformatsiyasini jadallashtiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ldi. Bunga doir o'tkazilgan tadqiqotda 2012–2019-yillar mobaynidagi 42 ta tijorat bankidan yig'ilgan panel ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lib, banklarning raqamli transformatsiyasining kredit ta'minoti hajmi va tuzilmasiga ta'sirini empirik tahlil qiladi.

Wooldridge [2] tomonidan taklif qilingan chiziqli bo'lmagan DID modeli asosida o'tkazilgan tahlillar hukumatning katta hajmdagi ma'lumotlar bazasidan foydalanib, turli miqyosdagi banklarning kredit tuzilmalari va siyosiy kafolat tashabbuslari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini aniqlaydi. Ushbu tadqiqot siyosiy kafolat tizimini takomillashtirish, tijorat banklarining raqamli transformatsiyasini qo'llab-quvvatlash hamda kichik va o'rta korxonalarni kreditlashni kengaytirish uchun nazariy asos yaratadi.

Tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi so'nggi yillarda ko'plab olimlar diqqat markazida bo'lib, turli metodologiyalar orqali baholanmoqda. Panel ma'lumotlar va raqamlashtirish indeksleri bank faoliyatining turli o'lchamlarini — boshqaruv, tashkilot va mahsulot innovatsiyasini — o'lchash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, Chen va boshqa olimlar; [3] Khatrak va boshqa tadqiqotchilar [4] banklarning risklarni qabul qilishga moyilligi va barqarorligiga raqamli transformatsiyaning ta'sirini tahlil qilishgan. Chen shuningdek raqamli transformatsiya korxonalarni bank kreditlariga bo'lgan qaramligini kamaytirishini ta'kidlaydi. Jia va Liu [5] tizimli xavf masalalariga e'tibor qaratgan. Ular raqamli xizmatlarni joriy qilinishidagi risklar va xatarlarni nazariy va empirik tahlillarini keltirib o'tishgan.



Zhu va Jin [6]; Shanti va boshqalar[7] tomonidan o'tkazgan tadqiqotlarda regressiya tahlili orqali raqamli transformatsiyaning bank samaradorligi va rentabelligiga ta'siri aniqlanib, tahlillar natijasida mijozlar bilan o'zaro aloqalar, xizmatlarning raqamli shaklga o'tishi va ichki jarayonlarning takomillashuvi bank samaradorligini oshirayotganini ko'rsatgan. Shuningdek, yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion qarashlari va texnik salohiyati raqamli transformatsiya muvaffaqiyatining muhim omillari sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, Hou va Yang [8] kabi tadqiqotchi olimlar esa raqamlashtirish kredit risklarini boshqarishni kuchaytirishini isbotlashgan.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi va davlat kafolatlari tizimi o'rtasidagi bog'liqlik turli jihatdan o'rganilgan bo'lsada, amaliy ma'lumotlarning cheklanganligi sababli ko'pincha nazariy darajada qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotdagi ma'lumotlar normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, Markaziy bank yo'riqnomalari, tijorat banklarining rasmiy statistik hisobotlari, Jahon banki va xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning tahliliy manbalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, huquqiy-me'yoriy tahlil va statistik usullar yordamida o'rganilib, kreditlash amaliyotining huquqiy asoslari va ularning samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda raqamli bank xizmatlari mijozlarga qulaylik yaratish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning asosiy vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.[9]

Bugungi kunda xalqaro bank tizimlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar — jumladan, AQSh, Germaniya va Yaponiya — o'z bank modellarini turli yondashuvlar asosida shakllantirgan bo'lib, har biri o'ziga xos strategik ustuvorlik va barqarorlikni ta'minlab kelmoqda. Germaniyada bank tizimi "universal bank" modeli asosida ishlaydi, ya'ni banklar bir vaqtning o'zida chakana, investitsion va korporativ xizmatlarni taklif qiladi. AQShda esa bu modeldan farqli o'laroq, "spetsializatsiya qilingan banklar" tizimi amal qiladi: masalan, community banklar faqat lokal mijozlar bilan ishlaydi, katta tijorat banklari esa ko'proq milliy va global bozorlarda faoliyat yuritadi. Yaponiya bank tizimi esa uzoq muddatli moliyalashtirish va industrial sheriklikka tayangan. Xususi va davlat banklari nisbatiga kelsak, Germaniyada davlat ishtirokidagi Sparkasse banklari hali ham yirik segmentni egallasa, AQShda bank tizimining 98 foizdan ortig'i xususi egalik ulushiga ega hisoblanadi. Germaniya va AQShda Markaziy banklar (Bundesbank va Federal Reserve) to'liq mustaqillikka ega bo'lib, ularning reguliator sifatidagi roli kuchli. Germaniyada moliyaviy infratuzilma (TARGET2, SEPA) Yevropa bo'yicha integratsiyalashgan, AQShda esa ACH va Fedwire kabi tizimlar real vaqtli to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Yaponiya esa bu borada gibrid modelni qo'llaydi, bu yerda davlat banklari strategik sektorlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bularning barchasi bank tizimining markaziy boshqaruvi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liq. Yaponiya shuningdek, Zengin System orqali milliy to'lovlarni tezlashtirishda yuqori texnologik yondashuvni qo'llaydi

1-jadval. Raqamli bank xizmatlarini joriy etilishini hududlar kesimida ulushi

Mamlakat	Raqamli xizmatlar ulushi	Raqamli foydalanuvchilar soni	ROE (%)	Samaradorlik (C/I)	Izoh
AQSh	70%	150 mln	12%	55%	Yetakchi
Germaniya	60%	45 mln	10%	60%	Barqaror
Yaponiya	55%	50 mln	8%	65%	Sekin o'sish
Singapur	85%	4 mln	14%	50%	Innovatsion
Janubiy Koreya	90%	38 mln	15%	48%	Juda tezkor

Manba: Digital Banking Statistics 2025: AI, Security Insights, etc.



Yuqoridagi jadvalda besh mamlakat (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya) bo'yicha raqamli xizmatlar ulushi, raqamli foydalanuvchilar soni, ROE (%), samaradorlik (C/I) va qisqacha izohlar keltirilgan. Janubiy Koreya yetakchi raqamli xizmatlarga o'tish va yuqori samaradorlik ko'rsatkichiga ega bo'lib, juda katta raqamli xizmatlar ulushu (90%) va yuqori rentabellik ko'rsatkichlar ya'ni 15% ROE ulushi Janubiy Koreyada raqamli transformatsiya samarali amalga oshgani va raqamli kanallar xarajatlarni kamaytirib, daromadni oshirayotganini ko'rsatadi. Buning sabablari tezkor mobil-foydalanuvchi bazasi, ilg'or to'lov infrastrukturasi, fintech integratsiyasi, yuqori raqamli madaniyat va raqamli to'lovlarni qabul qilishni takomillashishi bo'lishi mumkin.

Singapurda raqamli xizmatlar ulush 85% bo'lib, rentabellik ko'rsatkichi ROE 14% miqdorida, Samaradorlik ko'rsatkichi 50% bo'lgan, foydalanuvchilar soni esa 4 mlnni tashkil etib, boshqa davlatlarga nisbatan eng kichik ulushga ega. Raqamlardan ko'rinadiki, yuqori raqamli xizmatlar ulush va yaxshi samaradorlik qayd etilgan, lekin kichik foydalanuvchi bazasi bo'lganligi Singapur banklari har bir mijozdan ko'proq qiymat olishi (per-capita revenue) va yuqori darajali xizmatlar taklif qilishi mumkinligidan dalolat beradi.

AQShda katta hajmdagi raqamli xizmatlar ulushi 70 % ni tashkil etgan, ROE darajasi 12 % bilan yaxshi deb baholangan, o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi hamda eng yuqori ya'ni 150 mln foydalanuvchilar soniga ega. Ta'kidlash joizki, AQSH hajm bo'yicha yetakchilikni ko'rsatmoqda, bu esa marketing va raqamli xizmatlarda ko'p miqdorda investitsiyalarni jalb qilinganligini, daromadni oshirishga qaratilgan raqamli strategiyani yaxshi tashkil qilinganligini hamda xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar qiymatini oshirish bo'yicha sezilarli siyosat olib borilganligi natijasi bo'lishi mumkin.

Germaniyada ko'rsatkichlar barqaror, lekin raqamli transformatsiyada o'rtacha ulushga ega, ya'ni raqamli xizmatlar ulushi 60 %, foydalanuvchilar soni 45 mln, Samaradorlik yuqoqiroq biroq rentabellik kamroq ulushga ega (ROE 10%). Ma'lumotlardan ko'rinadiki, Germaniya banklarida an'anaviy infrastruktura, qat'iy regulatsiya va banklararo integratsiya muammolari tufayli raqamiylashuvni to'liq amalga oshirish jarayoni sekinroq kechayotgan bo'lishi mumkin.

Yaponiyada keltirilgan 5 ta mamlakatga nisbatan sekin o'sish ko'rsatkichlari, past darajali ROE va 65 % miqdoridagi samaradorlik qayd etilgan. Bu raqamli xizmatlarni joriy qilinishida sekin o'sishni hamda bank sektori ichida yuqori operatsion xarajatlar va an'anaviy tizimlar saqlanib qolganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlarga Yaponiyada aholining bank xizmatlaridan foydalanish odatlari, plastik va mobil to'lovlarga sekin o'tishi sabablardan biri bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi bank modeli xalqaro moliyaviy barqarorlik siyosatining integratsiyalashgan namunasidir. Bu yerda "universal bank" yondashuvi keng tarqalgan bo'lib, banklar chakana, korporativ, sug'urta va investitsion xizmatlarni bitta institutsional modelda birlashtirgan. Yevropa banklari 2024-yilning to'rtinchi choragida jami rentabellik (ROE) 9,54 % ni tashkil qilgan.[10] Misol tariqasida, EBF hisobotiga ko'ra, 2023-yilda Yevropa banklarining ROE ko'rsatkichlari o'rtacha 8,6 % bo'lgan.[11]

AQSh bank tizimi esa yuqori ixtisoslashganlik, kuchli nazorat va innovatsion salohiyati bilan ajralib turadi. Federal regulatsiyalar (FED, FDIC, OCC) birgalikda banklarning barqarorligini, depozitlarning sug'urtalanishini va shaffof hisobot berilishini ta'minlaydi. Banklar turli sinflarga ajratilgan: milliy miqyosdagi yirik banklar (Bank of America, JPMorgan) va hududiy community banklar. 2024-yilda AQShda 5,000 dan ortiq community bank faoliyat yuritmoqda. Kredit reyting agentliklari (S&P, Moody's, Fitch) banklarning moliyaviy holatini baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tashqi audit jarayoni esa Sarbanes-Oxley Act asosida o'tkaziladi, bu esa investorlarga ishonchni mustahkamlab beradi. AQSh bank sektori "neo-bank"lar — ya'ni to'liq raqamli banklar — orqali innovatsion o'zgarishlarni boshlab berdi: Revolut, Chime, Varo kabi platformalar millionlab foydalanuvchilarni o'ziga jalb qilmoqda. AQShdagi ba'zi tijorat banklarida misol uchun U.S. Bancorp misolida 2024-yilning to'rtinchi choragida tangibles equity bo'yicha rentabelligi ROE 18,3 % ga teng bo'lgan.[12]

AQShda fintech startaplarning soni ham keskin oshgan. 2024-yilda ushbu mamlakatda taxminan 13 100 fintech startap faoliyat yuritmoqda. [13]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli bank texnologiyalarini takomillashtirish bugungi kunda bank-moliya sohasida tezkor va qulay xizmatlarni joriy etish orqali mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Yuqorida keltirilgan Xitoyning Taizhou shahri tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank sektorida samaradorlikni oshirish uchun hukumat-bank-biznes hamkorlik platformasi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham turli xil banklar va moliya institutlari ixtisoslashgan holda faoliyat yuritishi mumkin: davlat banklari yirik korxonalarni, aksiyadorlik banklari kichik va o'rta biznesni, mikro moliya tashkilotlari esa startaplarni qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, kredit axboroti almashinuvi tizimini kuchaytirish, kafolat institutlari va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, hamda raqamli transformatsiya orqali shaffoflik va tezkorlikni ta'minlash bank sektorida yangi bosqichni boshlab berishi mumkin.



Umuman olganda, banklarda raqamli xizmatlarni takomillashtirish samaradorlikni oshirish, foydalanuvchilar bazasini kengaytirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni (Janubiy Koreya, Singapur va Taizhou modeli) o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish O'zbekiston bank tizimi uchun strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jingwen Yang, Xiaohui Chen, Digital transformation of commercial banks with innovative credit structure; Journal of Innovation & Knowledge; <https://doi.org/10.1016/j.jik.2025.100703>
2. Wooldridge, J. M. (2021). Two-way fixed effects, the two-way Mundlak regression, and difference-in-differences estimators. Social Science Electronic Publishing. <https://doi.org/10.2139/ssrn.3906345>
3. Chen, Z. Y., Li, H. X., & Wu, J. X. (2023). How digital transformation affects bank risk: Evidence from listed Chinese banks. Finance Research Letters, 58. <https://doi.org/>
4. Khattak, M. A., Ali, M., & Rizvi, S. A. R. (2023). Digital transformation, diversification and stability: What do we know about banks? Economic Analysis and Policy, 78, 122–132
5. Jia, K. W., & Liu, X. B. (2024). Bank digital transformation, bank competitiveness and systemic risk. Frontiers in Physics, 11. <https://doi.org/10.3389/fphy.2023.1297912>
6. Zhu, Y., & Jin, S. (2023). How does the digital transformation of banks improve efficiency and environmental, social, and governance performance? Systems, 11(7), 328. <https://doi.org/10.3390/systems11070328>
7. Shanti, R., Siregar, H., Zulfainarni, N., & Tony. (2023). Role of digital transformation on digital business model banks. Sustainability, 15(23), Article 16293. <https://doi.org/10.3390/su152316293>
8. Hou, X. H., & Yang, R. (2024). Bank digital transformation and liquidity mismatch: Evidence from China. International Review of Economics & Finance, 92, 581–597.
9. Alt, Beck & Smits, (2018). Alt, R., Beck, R., & Smits, M. T. (2018). FinTech and the transformation of the financial industry. Electronic Markets, 28(3), 235–243.
10. <https://www.bankingsupervision.europa.eu/press/pr/date/2025/html/ssm.pr250320~d59cb011c5.en.html?utm>
11. <https://www.ebf.eu/wp-content/uploads/2025/05/EBF-Banking-in-Europe-Facts-Figures-2024-2023-banking-statistics-December-2024.pdf?utm>
12. <https://www.usbank.com/about-us-bank/company-blog/article-library/us-bancorp-reports-fourth-quarter-2024-results.html?utm>
13. <https://www.demandsage.com/fintech-startups-statistics/?utm>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>